“Tafakkur Academy Global Press”
nashriyoti



1

“Ilm-fan taraqqiyoti”
respublika ilmiy konferensiyasi

Tafakkurconference.uz

Xattotlik san’ati: suls yozuvi tarixi

Dedashev Baxtiyor Bekmirza o’g’li

Alfraganus unversiteti

Sharq filalogiyasi kafedrasi o‘qituvchisi

Anotatsiya. Ushbu maqolada nafis xattotlik san’ati tarixi va undagi yozuv turlari hqida ma’lumotlar berilgan. Yozuv turlarining paydo bo’lish tarixi, ishltilish o’rinlari va yozuv qoidalari haqida ham ba’zi manbaalar keltirib o’tilgan. Bundan tashqari “Suls” yozuv xati to’g’risida ham qimmatli ma’lumotlar bilan tanishib chiqish mumkin. Tarixiy obidalar, qo’lyozmalarda keltirib o’tilgan yozuv turlaridan foto namunalardan ham foydalanilgan. Xattotlik san’atiga munosib hissa qo’shgan mashhur xattotlar, ilm-fan ravnaqi yo’lida jon kuydirgan buyuk allomalar haqida so’z boradi. Mavzu so’ngida esa, hozirgi kundagi xattotlikning rivojlanishi, bu sohadagi olib borilayotgan salmoqli ishlar haqida ham fikr yuritilgan.

Kalit so’zlar: Xattotlik san’ati, yozuv turlari: Suls, kufiy, nasx, ta’liq, rayxoniy, riq’a, Samarqand, Buxoro, Toshkent xattotlik maktablari, qamish qalam, tarixiy obidalar peshtoqlari.

“Xatki, o’z maromiga yetdi,

Ul xat ila, kishi ko’ngliga yetdi.”

Jaloliddin Rumiy

Sharq xalqlari, shu jumladan, O‘rta Osiyo xalqlarining madaniyat tarixi va eng qadimiy va ko‘p sohalarda yuksak taraqqiyot bosqichiga erishganligi bu kunda butun dunyo ilm-fan ahli tomonidan e’tirof etilgan haqiqatdir. O‘rta Osiyo xalqlari o‘z o‘tmishida bir necha daf’a iqtisodiy, siyosiy va madaniy taraqqiyot davrini boshidan kechirgan.

Arab yozuvi Markaziy Osiyoga islom dini bilan kirib kelgan. Shu sababli, arab mamlakatlaridagi va shuningdek, Markaziy Osiyodagi bir guruh xattotlar Qur’oni Karim hamda boshqa ko‘plab diniy manbalarni ko‘chirish bilan shug‘ullanganlar. O‘z zamonasida muqaddas Kalomi sharif, din-u shariat haqidagi kitoblarni ko‘chirish vazifasi har kimning qo‘lidan kelavermagan. Hukmron sinf ideologiya sohasidagi bunday mas’uliyatli vazifa o‘z davrining eng fozil va qobil kishilaridan hisoblanmish ziyoli xattotlarga yuklagan. Bu narsa ham kotibning o‘rta asr jamiyatida qanchalik mas’uliyatli shaxs ekanini yaqqol ko‘rsatadi. Bulardan tashqari tarixdan yana shu narsa ma’lumkli, o‘rta asrlarda yashagan bir qancha olim, shoir va fozil kishilar yoshlikdan xattotlik san’atini egallab, keyinchalik kotiblikda ham nom chiqarganlar. Xattot o’z nomi bilan xattotdir. Demak u qandaydir bir tekis yuzaga, qoog’ozga yoki taxta bo’lakchasiga yoki shunga o’xshash narsalarga, toshga, suyak parchalariga, oxorlangan terining ustki qismiga yozuvlarni tushirgan. Bu uslublar jamlanib keyinchalik kitob yaratish texnikasi asta sekin paydo bo’la boshladi. Kitob tayyorlash texnikasi o‘rta asr jamiyatidagi mehnat taqsimotida alohida o‘rin tutgan, xattotlik esa professional kasb bo‘lib qolgan. Qo‘lyozmalarni kitob holiga keltirishda bir necha muttaxassislar ishtirok etganlar. Ulardan birinchi darajadagilari qog‘ozrez (qog‘oz tayyorlovchi), xattot (ko‘chiruvchi), muzahhib (oltin hal beruvchi

lavvoh (sarlavha va jadvallarni ziynatlovchi), rassom (qo‘lyozmaga miniatyuralar ishlovchi) va sahhof (muqovasoz).[1]

Xattotlik san’ati sharq xalqlarining uzoq asrlik madaniy tarixiy merosida alohida o’rin egallaydi. Arab yozuvining dunyodagi boshqa xalqlar yozuvidan farqli jihati shundaki, bu yozuvning go’zalligiga alohida e’tibor berilishi natijasida, u ma’no tashish vositasidan tashqari, kishilarga yuksak estetik zavq beruvchi san’at asariga aylangan. Bu san’at avvaldan Sharqda husnixat, xattotlik, G’arbda esa kalligrafiya nomi bilan keng shuhrat qozongan. O’rta asrlarda, hali kitob bosish texnikasi ixtiro etilmagan vaqtda har qanday asar qo’lda ko’chirilib, kitobat qilinar edi. Shu bois, kitob ko’chirish o’sha davrda eng e’tiborli hunar va san’at hisoblangan. Bu hunar egalari xattot yoki kotib deb yuritilgan. Sharqda «kotib» deganda xuddi hozirgiday oddiy texnik ishni bajaruvchi xodim emas, balki o’z zamonasining madaniy hayotida muhim rol o’ynagan ilm-ma’rifat ahli va yirik madaniyat arbobi nazarda tutilgan. San’atkor xattotlarning yozgan xatlari ma’no ifodalash barobarida, kishilarni hayajonga solib, ularga estetik zavq bergan.[2] Kotib qalami bilan yozilgan har bir xat bebaho o’lmas asar hisoblangan. Muhammad bin Husayn at-Tibiy, Mir Ali Tabriziy, Sulton Ali Mashhadiy, Mir Ali Xisraviy, Munis Xorazmiy va Ahmad Donishlar shular jumlasidandir. Buyuk ajdodlarimiz ilhomlanib, xatning turlari va xilma-xil uslublarini ixtiro qilishgan. Shulardan biri 28 harfdan iborat arab alifbosining dastlabki shakli Nasxi Hijoziy qadimdir. Usmon Mushafi ham mana shu xatda bitilgan. Xalifa hazrati Usmon ibn Affon davriga kelib Qur’oni Karim mukammal kitobat qilingan va undan ko’plab nusxalar ko’chirish boshlangan. Mazkur nusxalarning ayrimlari O’rta Osiyo hududlariga keltirilgan. Shayx Jamoliddin Yoqut Jazoiriy (277 – 397/891–1007y.) ulug’ xattot Ibn Muqla shakllantirgan mashhur yetti xatni mukammallashtiradi. Shuningdek, u nasx xatining ixtirochilaridan biridir. Undan keyin Ibn Bavvob (vaf.mil. 1022y.) ham xat uslublariga sayqal berib, 36 xil xat turining 17 xilini yaratgan. Biroq yaratilgan barcha uslublarning asosini yetti xildagi xat turi tashkil etgan. Xattotlik san’ati faqatgina kitobat bilan chegaralanmagan. Ajdodlarimiz me’morchilik va xalq amaliy san’atining barcha jabhalarida husnixatdan foydalanishgan. Jumladan, inshootlarning ichki (interer) va tashqi (eksterer) ko’rinishlarini hikmatli so’zlar bilan bezatishgan. Har bir inshoot yoki muassasaning faoliyati uning tashqi ko’rinishidagi bezaklardan anglashilgan. Masalan, ilmu ma’rifat maskanlari tashqi bezagida ilmga va ma’naviyatga targ’ib etuvchi, karvonsaroy va choyxonalarda esa mehr-oqibatga chorlovchi hikmatli so’zlar va hadislar, masjidlarda ibodatga chorlovchi “Qur’on” dan oyatlar, maqbara va ziyoratgohlarda duo, zikr-tilovatlar bitilgan. Misol uchun: Ulug’bek madrasasi devoriy bitiklarida “Ta’lim olish va ilm o’rganish dunyoda izzat, oxiratda martabaga ega qiladi” mazmunidagi yozuvlar aks ettirilgan.

Avval boshda aytganimizdek arab yozuvi asosida shakllanga turli xil xat turlari mavjud. Masalan, Nasx, suls, kufiy, rayxoniy, riq’a, ta’liq, devoniy va boshqalar. Bular bir biridan yozilish shakliga ko’ra farq qiladi. Bularning ichida “xat turlarining otasi” deya ta’riflanadigan Suls xat turi ham a’lohida e’tiborga loyiqdir. Chunki bu xat turning ilmini egallamagan xattot xattot sanalmaydi.


Suls xati deyilishiga sabab shuki, bunda qalamning uchinchi xissasi ishlatiladi yoki suls xati ta’limida qalamning uchdan bir xissasi ko’proq ishga solinadi.[3]

Suls xati kufiy xatidan so’ng ixtiro qilingan. Uning ijodkori mashxur xattot Ibn Muqladir. Harflarning 4 qismi to’g’ri, ikki qismi esa egri chiziqlardan iborat. Nomi ham shundan kelib chiqqan. Ya’ni, Suls so’zi bir narsaning 3/1 qismi yoki 3-qismi degan ma’noni bildiradi. Sulsda “Alif”, “Dol” va “Lom” harflari gajakli bo’ladi. Suls dastlab rasmiy hujjatlarni ko’chirishda, keyinchalik, Qur’on


[1] K. O. Asrorov “Umumjahon e’tirof etgan xattotlar” maqola. 345-bet. Sentabr 2020.
[2] © B.Xodjimetov, N.Tursunaliyev, 2017 © “Xattotlik” o’quv qo’llanma. «Tafakkur bo’stoni» nashriyoti, 2017
[3] © B.Xodjimetov, N.Tursunaliyev, 2017 © “Xattotlik” o’quv qo’llanma. «Tafakkur bo’stoni» nashriyoti, 2017

ko’chirishda qo’llanilgan. Kitoblardagi shams naqshi ichidagi yozuv, asar nomlari, Qur’on va hadislarda keltirilgan ibora va jumlalar sulsda bitilgan. Kitoblarda maxsus mufradot yoki qit’alarda ham ishlatilgan. Xattot Yoqut Mustasimiy suls yozuvida maxsus “Yoqut sulsi” yoki “Yoqut ta’riyqi” deb ataluvchi uslub yaratgan.[4] Ibn Bavvob birinchi bo’lib suls xati harflarining shaklini nuqta o’lchovlariga asoslagan va suls xatining grafik asoslarini ixtiro etgan.

Bir necha asr davomida amalda qo’llanilgan arab yozuvining 100 dan ortiq turi mavjud. 28 harfdan iborat bo’lgan arab alifbosining dastlabki shakli “Xatti ma’qaliy” bo’lib, tik chiziqlar bilan ifodalangan. Ammo uzoq iste’molda bo’lsa-da, shuhrat qozona olmagan. VII asrdan boshlab uning o’rnini arab yozuvining eng qadimiysi va mashhuri hisoblangan “Xatti kufiy” egallaydi. Keyinchalik xatti ma’qaliy va kufiy xati asosida arab yozuvining san’atkorona yaratilgan 8 xil asosiy uslubi maydonga kelgan. Bular: suls, nasx, muhaqqaq, rayxoniy, tavqi’, riqo’, devoniy hamda nasta’liq xati. Bu xatlar ichida eng ko’p qo’llaniladigani va barcha uchun birdek manzur bo’ladigani, tez va oson o’qiladigani nasx xati bo’lib, 22 arab davlati va Eron Islom Respublikasida shu xatdan foydalaniladi.



1



2

[4] Internet manbaasi. Wikipediya sayti. “Suls xat turi haqida” maqola.

1-qo’lyozma: Muqaddas Qur’oni karim nusxasi. Eronlik mashhur xattot Zaynulobiddin Mahallati tomidan ko’chirilgan. Xat turi: Nasx, XIV asr.

2-qo’lyozma: Ahmad as-Suhravardiy tomonidan ko’chirilgan va Muhammad ibn Aybak ibn Abdulloh tomonidan yoritilgan Qur’on qo’lyozmasidan ikki varoq. Xat turi: Muhaqqaq, Bag’dod, 1307/1308. Turk va islom san’ati muzeyi.



3

3-qo’lyozma: Qur’oni Karimdan nusxa. Xattot Ibn Bavvob. Xat turi: Nasx. Qayerda ko’chirilgani noma’lum. XI asr boshlari.

Abul-Hasan Ali ibn Hilol – “Ibn Bavvob” nomi bilan mashhur yirik xattot. U kishi Buyida sulolasi hukumronligida yashab, taxminan 1022-yilda Bag’dodda vafot etgan.

Mazkur qo’lyozmaga e’tibor bersak, tilla suvidan foydanilganini ko’ramiz. Bu uslub xattotlar orasida an’anaga aylangan uslublardan biri bo’lgan.

Xattotlik san’ati Sharq mamlakatlarida o’ziga xos alohida ahamiyat kasb etgan, maxsus ixtisoslik darajasiga ko’tarilgan qadimiy va bebaho san’atdir. Bu davrlarda yozuv va kitob ko’chirishga e’tiborning ortishi tufayli ajdodlarimiz tasarrufida bo’lgan o’lkada “Buxoro xattotlik maktabi”, “Xorazm xattotlik maktabi”, “Farg’ona (Qo’qon) xattotlik maktabi”, “Samarqand xattotlik maktabi”, “Toshkent xattotlik maktabi” kabi bir necha yirik san’at markazlari vujudga keldi. Ibn Sinoning “Tib qonunlari” kitoblarida ta’kidlanishicha, xunuk xat bilan yozilgan matn kishining ko’ziga katta zarar yetkazadi. Shuning uchun xusnixat bilan yozilgan kitoblar nihoyatda qadrlangan, e’zozlangan hamda tabarruk sanalgan.[5]

XX asrda xattolar yirik kutubxonalardagi qo’lyozma kitoblar nusxasini ko’paytirish bilan shug’ullandilar. Jumladan, Navoiy kutubxonasi (O’zbekiston milliy kutubxonasi) da bir guruh xattotlar faoliyat yuritgan. 1943-yilda O’zbekiston Fanglar Akademiyasi Sharqshunoslik instituti tashkil topgach, malakali xattotlardan Ibodulla Odilov, Abduqodir Murodov, Abdulla Nosirov, Usmon Karimov kabi xattotlar jamoasi shu erga to’plandi va ular ko’hna qo’lyozmalarni tiklash, ko’chirish, tavsif varaqalari tuzish bilan shug’ullana boshladilar.

XX asrning 80-yillariga kelib kitobat san’ati bir guruh kishilar tomonidan qayta tiklandi. Bunda Habibulla Solih, Abdulla Mirsoatov, To’xtamurod Zufarov, Alisher Shomuhammedovlarning xizmatlari katta. Jumladan, xattot Habibulla Solih Qur’oni Karimning asl nusxasi “Usmon Mushafi” dan pergamentga 3 marta nusxa ko’chirib tayyorlagan (bir nusxasi Malayziyaning Kuala-Lumpur shahrida; pergamentga ko’chirib tayyorlagan yana bir nusxasi Toshkent Islom universitetida saqlanadi). Bular kabi yetuk ustoz xattotlardan hozirgi kunda ham yaxshi xattot shogirdlar yetishib hiqmoqda. O’ylaymizki kelajakda ustozlarning o’rnini bosuvchi yetuk xattotlar yanada ko’p yetishib chiqadi.



1

[5] © B.Xodjimetov, N.Tursunaliyev, 2017 © “Xattotlik” o’quv qo’llanma. «Tafakkur bo’stoni» nashriyoti, 2017

2

Samarqand shahri. Registon ansanbili. “Tillakori madrasasi” XVII asr.

Madrasa peshtoqlari keramika uslubida ishlangan. Kufiy xat turida oyatlardan namunalar keltirilgan.(1-rasm) Yarim arkasimon, tepaga qarab qirrali shakldagi peshtoqlar o’sha davrning an’anaviy uslublaridan biri bo’lgan. Ranglari och havorang kaloritda berilgan. Kompozitsion jihatdan geometrik shaklda ishlangan. Madrasaning ichki tarafi ham o’sha an’anaviy uslubda bezatilgan. Madrasaning ichida, kiraverishning to’g’risida arkasimon shaklda mehrob ishlangan. Atrofi tilla suvi bilan bezatilib, yana qo’shimcha mayda arkasimon shakllar ishlangan. Ikki tarafi va tepa qismida Suls xatida Qur’on oyatlari yozilgan. Ular kompozitsion joylashtirilib, ranglari ham bir biriga uyg’unlashuvchi to’q havorang tusda berilgan. Devorlarning pastki qismi qattiq marmar va granit toshlardan ishlangan. To’g’ri burchakli, arkasimon, yarim aylana shakllari ko’p uchraydigan devor naqshlarining o’rtalariga islimiy, grix uslubda shamas naqshlar ishlangan. Ularning o’rtalariga esa doira shaklda oyatlar yozilgan. E’tiborli jihati shundaki, barcha yozuvlar deyarli tillada ishlangan. Bu esa madrasa nomiga ham mos ravishda bo’lishidan dalolatdir.

Xulosa qilib aytish mumkinki, Yurtimizda azaldan me’moriy inshootlar – masjidlar, madrasalar va maqbaralarning tashqi va ichki devorlari, peshtoqlari turli naqshlar bilan birgalikda xattotlik uslublarida yozilgan bitiklar – Qur’oni Karim oyatlari, hadislar, hikmatli so’zlar va she’riy parchalar bilan bezatilgan.

Yurtimizda shakllangan xattotlik maktablarining eng mashhur vakillaridan ayrimlari hali ham shu sohada ijod qilmoqdalar. Umid qilamizki, ushbu sohaning davomchilari bo’lmish biz kabi yoshlar ustozlar izidan borib bu nafis san’atning sir asrorlarini yanada chuqur o’rganib, yurtimiz ravnaqiga o’z hissalarini qo’shishadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. K.O.Asrorov “Umumjahon e’tirof etgan xattotlar” maqola. 345-bet. Sentabr 2020.
2. B.Xodjimetov, N.Tursunaliyev, “Xattotlik” o’quv qo’llanma. «Tafakkur bo’stoni» nashriyoti, 2017.
3. Internet manbaasi. Wikipediya sayti. “Suls xat turi haqida” maqola.
4. Ibrohim Aniys. Mu’jam vasit. – Qohira: Darul maorif, 1972. – B. 216.